



## GENDER TENGLIKNING SHAXS BAXTLILIK DARAJASIGA TA'SIRI

Xudoyorova Madina Xolmo'min qizi

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi  
huzuridagi "Oila va xotin-qizlar" ilmiy tadqiqot institut doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7456260>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 18<sup>th</sup> December 2022

Online: 19<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

*Gender tenglik, Gender xususiyatlar, baxtlilik darajasi, sub'ektiv farovonlik, jamiyat, oila, refleksiya, jamiyat, siyosat, tarbiya, ta'lim, psixologik farovonlik, sub'ektiv farovonlik.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada gender tenglik jamiyat hayotiga uning rivojlanishiga va insonlar baxtlilik darajasiga, sub'ektiv farovonligiga ta'sir ko'rsatishi aks ettirilgan. Gender tenglik mavjud jamiyat va gender tenglik mavjud bo'lmagan jamiyat o'rtasidagi baxt indeksi solishtirilgan. Gender tenglik mavjud bo'lgan oilalar va ulardagi farzandlar dunyoqarashidagi differentsiallar yoritib berilgan.*

**Kirish.** Bugun biz rivojlanayotgan va axborotlar ba'zasi juda katta bosimga ega bo'lgan bir zamonda yashamoqdamiz. Shunga qaramay insoniyat va olam yanada rivojlanish va yuksalish uchun harakat qilmoqda. Har bir davlat, har bir jamiyat, har bir insoniyat bugungidan ko'ra yaxshiroq kuchliroq va mukammalroq bo'lishga intilmoqda. Har qaysi jamiyat boshqasidan ko'ra oldinroq qadam tashlashga tashna shubhasiz. Xo'sh qanday jamiyat boshqalariga nisbatan oldinroq boradi? Bizning javobimiz esa quyidagicha. Hammamizga ma'lumki davlat, jamiyat, oila 2 toifa individlardan tashkil topgan: erkak va ayol. Shunday ekan, har ikkisi bir xil rivojlangan ta'limga ega tafakkur va iqtidorda bir biridan o'zadigan va bir birini to'ldiradigan jamiyat albatta bir tomonlama ya'ni faqat bittasi (ayol yoki erkak rivojlangan) jamiyatdan har taraflama ustunroq va mukammalroq bo'ladi. Shunday ekan bu maqolamizning

dolzarbligi nafaqat shaxslar uchun balki bir butun insoniyat kelajagi uchun muhimdir.

**Maqsad va uni asoslash.** Yuqoridagi dolzarb qismdan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, ushbu maqolaning maqsadi gender tenglik nafaqat oilaviy baxtga balki, insoniyat ongli ravishda o'z hayotida yashashi, o'zini anglashi, o'zini kerakli his qilishiga juda kata omil bo'lib xizmat qiladi.

**Ilmiy muommoning tavsifi va yechimi.** Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog'i: erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik — bu oilada erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra [8], gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy



to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Kalabixina Irina Yevgenevna kandidat ekonomicheskix nauk, dotsent kafedri narodonaseleniya ekonomicheskogo fakulteta MGU.

Jarayonda ko'plab davlat va jamiyatlarda erkaklar faol bo'lib ayollar jamiyat "qonun qoidalarga" binoan "passivlashtirilgan" va bu ayollarimiz baxtlilik darajasiga ham salbiy ta'sir qilmoqda. Shu bilan birga farzandlar unib o'sishi va onadan qabul qiladigan energiya hamda bilimlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ba'zi gender tenglik munosabatlariga boshqa tomondan qaraydigan yondashuv egalari fikriga ko'ra "Agar ayollar erkaklar bilan teng ko'rilsa va ular qiladigan ishlarga jalb qilinsa ular o'zlarini baxtli xis qilmaydilar. Bunga sabab ular o'zlari yaxshi ko'radigan yumish do'kon aylanish, bolani parvarish qilish, tozalik va taom tayyorlash kabi mashg'ulotlarga vaqtlari qolmaydi. Buni qarangki, inson psixologiyasi va xarakter xususiyatlari shunchalik murakkabki, bir shaxs bilan ikkinchi shaxsning qarashlari va qiziqishlari mutlaqo farq qiladi. Endi yana bir savol tug'iladi. Hisob kitobni, binolar va ko'chalar tasvirini tushirishni, bir biridan farqlanadigan texnikalarni haydash orqali o'zini baxtli va farovon his qiladigan ayollar yo'qmikan bu jamiyatda? Agar bor bo'lsa ularning jamiyatdagi, oiladagi baxtiga kim javob berar ekan? Aytmoqchimizki gender tenglik mavjud bo'lgan jamiyatda ayol ham erkak ham psixologik xususiyatlari, qiziqishlari hamda dunyoqarashidan kelib chiqib kasb tanlaydi, oila quradi birgalikda rivojlanadi.

Tabiiyki qiziqishlariga mos kasb va ish bilan shug'illangan jamiyatdagi insonlarda baxtlilik darajasi yuqori bo'ladi. XXI asrda ham bir marta qiziqqan kasbi bilan bir kun shug'ullanishi uchun judayam ko'plab moddiy va ma'naviy boyligini berib yuboradigan ayol qizlarimiz kam emas afsuski! Baxtlilik darajasi turli davlatlarda tadqiqot sifatida o'rganilgan bo'lib ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz<sup>4</sup>. Bu yil O'zbekiston baxtiyorlik reytingida 53-o'rinni egalladi. Hammasi bo'lib, unda 146 mamlakat ro'yxati keltirilgan. Finlandiyada ketma ket beshinchi yil birinchi o'rinni egallab turibdi. Oxirgisi Afg'oniston Qozog'iston-40, Turkmaniston-78, Qirg'iziston-64, Tojikiston-83-o'rinni egalladi. Reyting tuzishda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi, umr ko'rish davomiyligi korrupsiya va erkinlik haqidagi tasavvurlar, sahovatpeshalik, ijtimoiy qo'llab quvvatlash darajasi hisobga olinadi. Bunday tadqiqotlar natijasida yana ko'rish mumkinki mamlakatda ayollar baxt indeksi juda past darajani qayd qiladi O'zbekiston Respublikasida ham Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, albatta O'zbekistonda bu ko'rsatkichlar ham ortib bormoqda misol tariqasida gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa



ko'tarildi. Bu albatta quvonarli holat. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi. Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan mazmunli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" tizimi joriy etilib, Davlat budjetidan har yili 300 mlrd so'm mablag' ajratib borish yo'lga qo'yildi. Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarning o'qish to'lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatib. Jahon bankining ayollar, biznes va qonun indeksida O'zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o'rinni egalladi<sup>2</sup>. Tengsizlik ayollar o'rtasida ruhiy tushkunlik va ishonchsizlik holatlariga olib kelishi kuzatilgan. Bularning barchasi bir biriga chambarchas bog'liq deb o'ylayman. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki tengsizlikni keltirib chiqarayotgan omillar, ya'ni ayollarni ishga qabul qilish sonining kamligi va erkaklarga nisbatan kam maosh olishlari asosiy muammo va buni hal qilish usullari- gender dasturlarni qo'llash ishonchli usuldir. Bu muommolarni hal qilish jamiyatda oliy ma'lumotli qatlamni oshirishga olib keladi. Shuni ham aytib o'tish joizki qachonki onalar bilimli va saviyali bo'lishsa farzand ham ya'ni

yurtning kelajaklari ham saviyali bilimli bo'lishadi. Bu esa jamiyat rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Bundan tashqari davlatimiz tomonidan gender tenglik bo'yicha qonun ham qabul qilingan bo'lib unda quyidagi modda keltiriladi. 21-modda. Mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari<sup>7</sup>

Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/562/3681-son; [https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender\\_tengligi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi)

Ish beruvchi mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish maqsadida quyidagilarni ta'minlaydi:

ishga yollashda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni;

teng mehnat uchun xotin-qizlar va erkaklarga teng ish haqini (mukofotni) hamda xotin-qizlar va erkaklar ishining sifatini baholashga doir teng yondashuvni; xizmatda ko'tarilish, qayta tayyorlash va malaka oshirishda teng imkoniyatlarni;

texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ish hajmlarining qisqarishi oqibatida xodimlarning soni (shtati) yoki ishning xususiyati o'zgarishi yoxud korxonalar, muassasa va tashkilot tugatilishi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda qonunda belgilangan afzalli huquqlarni bergan holda xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari tengligini;

oilani ijtimoiy himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha farzandlari bor ayollar va erkaklar foydalana oladigan amaliyotni joriy etish va rivojlantirishni, homilador hamda emizikli ayollar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratishni;



xotin-qizlar va erkaklarning hayot faoliyatini hamda sog'lig'ini saqlashni ta'minlaydigan, shu jumladan reproduktiv funksiyalarni saqlaydigan xavfsiz mehnat sharoitlarini;

mehnat munosabatlarida shaxslarning qadr-qimmatini poymol qilishga olib keluvchi nomaqbul muomalaga yoki kamsituvchi mehnat sharoitlarini yaratishga yo'l qo'yilmasligini;

xotin-qizlar va erkaklar uchun mehnat faoliyatini, jamiyat hayotida ishtirok etishni oilaviy majburiyatlar bilan birga olib borish uchun teng sharoitlar yaratishni, shu jumladan mehnat qilish imkoniyatini beradigan, bolalarni parvarishlash bo'yicha muassasalar tarmog'ini tashkil etish va kengaytirish orqali sharoitlar yaratishni. Yuqoridagi modda ham ayol va erkaklar jamiyat rivoji uchun o'z qiziqishlarini amalga oshirish uchun mehnat jaroyonlarini tartibga solishga kata ustun siaftida xizmat qiladi. Bundan tashqari oilaviy munosabatlarda ham bu qonun gender tenglikni targ'ib qiladi keeling bir nechta misollar bilan ko'rib o'tamiz.

2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

24-modda. Oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari

Oila, onalik, otalik va bolalik davlat muhofazasidadir.

Xotin-qizlar va erkaklar oilaviy munosabatlar sohasida teng huquq hamda majburiyatlariga ega.

Oilaviy munosabatlar sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun huquq hamda imkoniyatlarning tengligi quyidagilarga asoslanadi:

xotin-qizlar va erkaklar nikoh tuzishining ixtiyoriyligiga;

majburiy va erta nikohlarga yo'l qo'yilmasligiga;

er va xotinning shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarini tengligiga;

oilaning ichki mojarolarini o'zaro kelishuv bo'yicha hal qilishga;

uy mehnatiga nisbatan xotin-qizlar va erkaklar huquq hamda majburiyatlarining tengligiga;

bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishda, voyaga yetmagan hamda mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashda teng ishtirok etishga.

Ota-onalar kichik yoshdagi bolalarni, nogironligi bo'lgan oila a'zolarini parvarishlash bo'yicha nafaqalar olishda teng huquqlarga ega bo'ladi.

Bola tug'ilishi munosabati bilan ona ham, ota ham haq to'lanadigan ta'til olish huquqiga ega. Bolani parvarishlash bo'yicha ta'tilning davomiyligi ota-onaning ixtiyoriga ko'ra ular o'rtasida bo'linishi mumkin, bunda ota-ona ta'tildan uni qismlarga bo'lgan holda foydalanishi mumkin. Yuqorida keltirilgan 24-moddaning mazmun mohiyatidan ko'rinib turibdiki, bunda ayol va erkaklar oilada ham farzand tarbiyasida ham teng huquqli va bir xil mas'uliyatga ham egadir. Shunday ekan ular o'zaro tenglikda yaxshiroq rivojlana oladi, bir hil vazifalar va mqsadlar bo'lgani uchun o'zaro yordamlashish, bir birini tushunish, ko'maklashish hissi paydo bo'ladi bu oilaviy mustahkamlikni ham ta'minlaydi. Shunday ekan oilaviy munosabatlar va gender tenglik o'zaro ijobiy korrelyatsiya deb aytishimiz mumkin.

Shu imkoniyatlar ko'zlangani uchunmi 17-moddada siyosat



darajasida, davlat boshqaruvi darajasida ham gender tenglikni asosiy pog'onaga ko'tarishgan, Keling bu moddani ham psixologik tahlil qilib ko'ramiz. 17-modda. Davlat xizmatidagi lavozimlarni egallash uchun tanlovlarda xotin-qizlar va erkaklarning teng ravishda ishtirok etishi

Davlat xizmatidagi lavozimlarni, shu jumladan rahbarlik lavozimlarini egallash uchun tanlovda xotin-qizlar va erkaklarning teng ravishda ishtirok etishi ta'minlanishi kerak.

Davlat organlarining kadrlar xizmatlari zimmasiga tanlov komissiyalariga nafaqat tanlovda ishtirok etayotgan shaxslarning ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, balki davlat xizmatining tegishli lavozimlarida ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni ham taqdim etish majburiyati yuklatiladi. Shunga o'xshash ma'lumotlar xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga doir chora-tadbirlar ko'rish uchun davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish, xizmat bo'yicha ko'tarish masalalarini hal qilishda davlat organlarining kadrlar xizmatlari tomonidan taqdim etiladi. Ta'limiy sohada ham gender tenglik va davlat siyosati darajasida ham gender tenglikning qamrab olinganligi gender tenglik o'z ta'sirini ko'rsatmagan bironta ham soha qolmaganligining isbotidir. UShbu sohlar rivojiga gender taenglikning ijobiy

tomonlari bormi degan savol bilan yuzlanadigan bo'lsak albatta bu savolga ijobiy javob beramiz. Sababi ayollar va erkaklar psixologik jihatdan turli jaroyonlarga, vaziyatlarga, muommalarga har xil yechim berib ishlashadi. Bu esa jamiyatdagi muommalarga faqat bitta yechim emas bir nechta yechim bilan shu muommoni hal qilish imkonini beradi.

**Xulosa** o'rnida aytishimiz mumkinki, qachonki jamiyatdagi oilalar, farzandlar, ayollar, qizlar chinakam baxtni his qiladi ularning barcha haq-huquqlari jamiyat tomonidan hisobga olinsa, barcha bilan teng bo'lib qiziqishlari, qadryatlari bilan bemalol shug'ullana olsa, ilm olib rivojlansa o'z ustida ishlasalar chinakam baxtli ayol psixologik farovon bo'lib farzand tarbiyasida muhim bo'lgan sog'lom muhitni yaratib bera oladi. Sog'lom muhitda tarbiya topgan bola har tomonlama: jismoniy, psixologik va ta'limiy jihatdan ustun bo'ladi. Psixologik nuqtai nazardan oladigan bo'lsak psixologik sog'lom va psixologik farovon oiada tarbiya va ta'lim olgan shaxslar har tamonlama mukammal va ilmiy qarashlari keng, o'zini-o'zi tashqaridan refleksiya qila oladigan mustaqil shaxs bo'lib yetishadi. Bunday shaxslar esa jamiyatimiz, davlatimiz, va insoniyat kelajagi uchun muhim bir ustun bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan biz jamiyatda, oilada, shaxslar o'rtasidagi munosabatlarda gender tenglikni targ'ib qilish orqali kelajagimiz mustahkam imoratiga bir g'isht qo'shgan bo'lamiz.

## References:

1. UNICEF foundation of gender-transformative Approaches <https://cutt.ly/6hatOke>
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori. 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son
3. <https://lex.uz/docs/-5466673>
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender\\_tengligi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi)



5. [heconversation.com/tudge-stands-aside-while-claim-of-kicking-fonner-staffer-investigated-173064](https://heconversation.com/tudge-stands-aside-while-claim-of-kicking-fonner-staffer-investigated-173064)
6. Tokhirov A.I. "WRITING CONTROL PROGRAMS FOR COMPUTER NUMERAL CONTROL MACHINES" // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 5(86). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11810>. DOI - 10.32743/UniTech.2021.86.5.11810
7. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/562/3681-son;
8. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375
9. Kalabixina Irina Yevgenevna kandidat ekonomicheskix nauk,dotsent kafedri narodonaseleniya ekonomicheskogo fakulteta MGU.